3. Erik Erikson Childhood and Society. — New York, 1963.
4. Robert J. Sternberg A Triangular Theory of Love // Psychological Review. — 1986. — Vol. 93, No. 2. — P. 119–135.
5. John Bowlby A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. — New York, 1988.
6. Laura L. Carstensen The Influence of a Sense of Time on Human Development // Science. — 2006. — Vol. 312, No. 5782. — P. 1913–1915.
7. Rean A. A., Feldshtein D. I. Psikhologiya razvitiya lichnosti. — Moskva, 2016.
8. Radina N. K. Psikhologiya polovogo i gendernogo razvitiya. — Moskva, 2014.

NOSIRIDDIN TUSIY G‘OYALARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH

Urazova Guli Uringaliyevna

Urganch davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk Sharq mutafakkiri Nosiriddin Tusiy merosidagi axloqiy va falsafiy qarashlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasini va ma’naviyatini rivojlantirish metodikasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada boshlang‘ich sinflarga mos axloqiy tarbiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar va didaktik o‘yinlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ijobiy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Nosiriddin Tusiy, didaktik o‘yin, metod, axloq, metodika, o‘quvchi, fazilat.*

Аннотация. *В данной статье освещаются вопросы формирования методики развития нравственного воспитания и духовности учащихся начальных классов на основе нравственных и философских взглядов, содержащихся в наследии великого восточного мыслителя Насириддина Туси. В статье представлены методы и дидактические игры, направленные на развитие нравственного воспитания, соответствующего начальным классам, которые способствуют повышению эффективности развития положительных нравственных качеств у учащихся.*

Ключевые слова: *Насириддин Туси, дидактическая игра, метод, нравственность, методика, учащийся, добродетель.*

Abstract. *This article examines the issues of developing a methodology for moral education and spirituality of primary school students based on the ethical and philosophical views contained in the heritage of the great Eastern thinker Nasir al-Din Tusi. The article presents methods and didactic games aimed at developing moral education appropriate for primary grades, which serve to increase the effectiveness of developing positive moral virtues in students.*

Keywords: *Nasir al-Din Tusi, didactic game, method, morality, methodology, student, virtue.*

Kirish. Axloqiy tarbiya bu har bir navqiron avlodning ma’naviy yuksalishida, jamiyatda to‘g‘ri axloqiy fazilatlarni shakllantirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi sinf o‘quvchilari tarbiyasida esa adolat, halollik, mehr-shafqat, bilimga intilish kabi fazilatlarni shakllantirish beqiyos ahamiyatga ega. Shu jumladan, Sharqning qomusiy olimlaridan biri sanalgan Nosiriddin Tusiy (1201–1274) o‘z asarlarida insonning axloqiy kamolotini, insoniy fazilatlarini, ilmga intilishni muhim o‘rin tutuvchi mavzu sifatida ko‘rsatgan. Shuning uchun ham, olimning g‘oyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari komil shaxs sifatida

tarbiyalash hamda manaviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish metodikasi yaratish bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi.

Ayni paytda, Sharq boshlang‘ich ta’lim tajribasida quyidagi o‘ziga xosliklar mavjud:

-Ustoz-shogird an’anasiga tayanish;

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoaviy (o‘qituvchilar, murabbiylar, psixologlar, maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida) tarbiyalash;

-boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini O‘zbekiston sharoitida Prezident va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘qish uchun tayyorlash;

- boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini oila va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash. [1, 13-bet]

Asosiy qism. Sharq mutafakkirlarilaridan biri bo‘lgan Nosiriddin Tusiy asarlaridagi axloqiy-falsafiy, pedagogik qarashlari orqali shaxs kamolotida tarbiyaning o‘rni hamda ahamiyatini chuqur asoslab bergan. Olimning g‘oyalari bugungi kundagi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda boshlang‘ich ta’lim jarayonida samarali qo‘llanishi mumkin. Bu bosqichda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida biror narsani o‘rganish kuzatish, taqlid qilish orqali shakllanib boradi. Shu sababdan ham, axloqiy, tarbiyaviy tushunchalarni ertaklar, didaktik o‘yinlar, hikoyalar, turli xil metodlar orqali o‘rganish samarali hisoblanadi.

Nosiriddin Tusiy g‘oyalariga va pedagogik qarashlariga tayangan holda axloqiy tarbiyani quyidagicha yo‘nalishlarda tashkil qilish maqsadga muvofiq:

-ijobiy xulq-atvor me’yorlarini o‘quvchilarda shakllantirish. Bunda jamiyatda odob-axloq hamda kundalik hayotda o‘zini tutish qoidalariga amal qilish tushuniladi. Bularga misol qilib, o‘quvchilarning bir-birini hurmat qilishi, yolg‘on gapirmasligi, salomlashishi, navbatda turish odobiga rioya qilishi, o‘z fikr va g‘oyalarini odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda ifodalashini aytishimiz mumkin.

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda mas’uliyat hamda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Boshlang‘ich ta’lim davri o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb qiladi. Aynan shu bosqichda bolalarda mas’uliyat, qat’iyat, mustaqillik va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olish kabi muhim axloqiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Mas’uliyat hamda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari o‘quvchining nafaqat ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki uning kelajakdagi hayotiy faoliyatini ham belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

-jamoada hamkorlik, hurmat va adolat tamoyillarini qaror toptirish. Tusiyning “Axloqi Nosiriy” asarida adolat tushunchasini quyidagicha izohlab bergan: “Adolat” so‘zining ma’nosi o‘z kelib chiqishi e’tibori bilan “barobarlik” va “muvozanat” so‘zi bilan bog‘liqdir, barobarlikni esa birlikni tushunmasdan anglamoq qiyin. “Birlik” sharaf va mukammal darajalarning eng quyi va eng yuksak martabasidan tamomila farqlangan maxsus tushunchadir, uning arig‘i o‘z suvini haqiqiy bir bo‘lgan ilk boshlang‘ich, ya’ni butun sanalgan borliqlarning mohiyatiga ta’sir etgan bir mutlaq vujudning nur selidan olingandir. [2, 99-bet] Nosiriddin Tusiy asarlari asosida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodlari va usullari:

-hikoya va ertaklar orqali – masalan, Nosiriddin Tusiyning hayoti va odoblari asosida qisqa hikoyalar o‘quvchilarga tushuntiriladi. Mavzuga mos savollar beriladi. Masalan, “Bu hikoyadan kundalik hayotingiz uchun qanday saboq olishingiz mumkin?”.

-rol o‘yinlari va mini-sahnalashtirish – o‘quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtirib, axloqiy qarorlarni mustaqil qabul qilishni o‘rganadilar. Bu orqali ularning xatti-harakatlarini baholab, qisqacha o‘z fikrlarini bildirib o‘tishadi.

-interaktiv va raqamli metodlar – videolar, animatsiyalar, onlayn viktorinalar orqali axloqiy qadriyatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. 21-asr fan va texnologiya shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda yashayapmiz. Dars jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga shu bilan birga o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlarning ahamiyati: o‘quvchilarning qiziqishini oshirish. didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otib, ularni dars jarayonida faol qatnashishga undaydi. O‘yin davomida o‘quvchilar mavzuni qiziqarli shaklda o‘zlashtiradilar va o‘z bilimlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, til o‘rgatishda “so‘z topish” o‘yini yoki matematikada “savol-javob” mashqlari qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi. O‘yin shaklidagi topshiriqlar orqali o‘quvchilar darsda olgan bilimlarini takrorlaydilar va amaliyotda qo‘llaydilar. Bunday o‘yinlar bilimlarning mustahkamlanishiga, ular orasidagi bog‘lanishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. [3, 240-bet]

Didaktik o‘yin: “Donishmandlar xazinasi”. Ushbu didiaktik o‘yinning maqsadi o‘quvchilarning axloqiy tafakkurini rivojlantirish, hikmatli so‘zlarning ma’nosini tushunish, tahlil qilish hamda kundalik hayotda qo‘llash asosiy vazifa sanaladi. Didaktik o‘yinda ishtirok qilish uchun 3-4-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladi. Jamoa tarzida o‘yinda ishtirok qilishadi. Har jamoadan bilim darajasi va soni jihatidan teng taqsimlanishi kerak. Har bir jamoa o‘z guruhiga axlqiy fazilatlarga oid nom tanlaydi. Masalan, “Halollik”, “Mehnatsevarlar”, “Rostgo‘ylar”. Jamoalarga o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanib kelingan kartochkalar tarqatiladi. Bunda o‘qituvchi Nosiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy” asaridagi hikmatli so‘zlaridan foydalanishi mumkin. Bir hikmatli so‘zini yozadi va bitta so‘zini tushirib qoldiradi. O‘quvchilar o‘zlari mantiqan topishlari kerak bo‘ladi. Aynan o‘sha so‘zni topishsa 2 ball, sinonimini topishsa 1 ball, ma’nosini izohlab berishsa 3 ballni qo‘lga kiritadi. O‘yin so‘nggida eng ko‘p ball to‘plagan jamoa g‘olib bo‘lib, jamoa a’zolari rag‘batlantiriladi. Masalan, “__ naqadar qattiq chopa olsa, sohibining amriga tobe bo‘lib go‘zal tarbiya olmoq qobiliyatiga molik bo‘lsa, egar va jilovga yetsa, shu qadar komil hisoblanadi”.[2, 37-bet] Kartochaga quyidagicha jumla yozilib va tushurib qoldirilgan so‘zni toping va izohlab bering deb yoziladi. Bu yerda tushirib qoldirilgan so‘z “ot” edi.

Ushbu didaktik o‘yin orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqy tafakkur, fikr yuritish, kritik tahlil qilish qobiliyati ham shakllanadi. Shu orqali bilimlari kengayadi, muammollarni tez va oson hal qilish rivolanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Nosiriddin Tusiyning axloqiy-falsafiy g‘oyalari, pedagogik qarashlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasini shakllantirishda, ma’naviy kamolotini rivojlantishda samarali vosita sanaladi. Uning qadriyatlarini zamonaviy pedagogik metodlar, shu jumladan interaktiv va raqamli usullar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda axloqiy, ijobiy fazilatlarni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Jabborova O. M.**, **Umarova Z. A.**, **Babaxodjayeva L. G.** Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: 5111700 — «Boshlang‘ich ta’lim» bakalavr talabalari uchun darslik. — 2021. — 198 b.
2. **Xo‘ja Nosiriddin Tusiy** Axloqi Nosiriy: risola [Matn]. — Buxoro, 2022. — 320 b. — Elektron resurs: ResearchGate.
3. **Musayeva N. N.**, **Musayeva N. A.**, **Xamdamova M. A.** Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati // Inter education & global study. — 2024. — № 10. — B. 236–242.

INTERAKTIV O‘YINLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Usmonova Nafosat Akmaljon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti